



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 115 sahifa,  
1-sentyabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

*Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik*  
*Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik*  
*Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor*  
*Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor*  
*Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)*  
*Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)*  
*Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)*  
*Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*  
*Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)*  
*Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)*  
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*  
*Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)*  
*Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti*  
*Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)*  
*Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)*  
*Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent*  
*Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori*  
*Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
*Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari*  
*Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA PEDAGOG SHAXSINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	8
<b>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</b>	
SUITSIDIAL HOLATLARNI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR .....	11
<b>Sadilloev Odiljon Oripovich</b>	
MAHKUM SHAXSINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI O'RGANISH YUZASIDAN ILMIY TAHLILLAR .....	15
<b>Turdiyev Zafar Erkinovich</b>	
TALABALARDA KORRUPSION XULQ-ATVORGA IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI .....	18
<b>Xamidov Mansurjon Abduxalilovich</b>	
AYOLLARDA KETISH ISTAGI FENOMENI VA MIGRATSIYA MOTIVLARINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI (ICHKI MIGRANT AYOLLAR MISOLIDA) .....	21
<b>Sadullayeva Jamilaxon Ibodilla qizi</b>	
HARBIY XIZMATCHILARDA PSIXIK O'ZINI O'ZI BOSHQARISH DOIRASIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI.....	30
<b>Qiyomxo'jayeva Madina Rustambek qizi</b>	
NAMANGAN OILALARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK TAVSIFI .....	35
<b>Turg'unboyeva Azizaxon G'ulomovna</b>	
PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI KASBIY FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISH .....	39
<b>Berdiyeva Raxima Shakarboyevna</b>	
O'ZBEKISTON PSIXOLOGLARI TADQIQOTLARIDA EMOTSIONAL HOLATLAR VA AYBDORLIK HISSINING PSIXOLOGIK TAHLILI .....	44
<b>Sultanova Saida Muhiddin qizi</b>	
DEVIANT XULQLI YOSHLARNING IJTIMOY MOSLASHUV MEXANIZMLARIDA HISSIY-IRODAVIY JIHATLARNING AHAMIYATI .....	47
<b>Zaripova Zilola Erkin qizi</b>	
SHAXSDA IMPOSTER SINDROMI VA SALBIY BAHOLANISHDAN QO'RQISHNING PSIXOLOGIK ALOQADORLIGI .....	51
<b>Yuldasheva Nilufarxon Sherqo'zi qizi</b>	
КОЛЛЕКТИВИЗМ И ИНДИВИДУАЛИЗМ В МЕЖЭТНИЧЕСКОМ ОБЩЕНИИ: КУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВАНИЯ ПОВЕДЕНИЯ В ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ ОБЩЕСТВАХ.....	54
<b>Айдарова Диана Сматуллаевна</b>	
O'QITUVCHILARGA KO'RSATILADIGAN PSIXOLOGIK XIZMATNING ILMIY ASOSLARI .....	62
<b>Usmonova Dilnoza Bahodir qizi</b>	
DESTRUKTIV AXBOROT TAHDIDLARIGA QARSHI PSIXOLOGIK PROFILAKTIKA STRATEGIYALARI.....	66
<b>Barakayeva Nilufar Zubaydullo qizi</b>	
THE STRUCTURAL MODEL OF STUDENTS' ENGAGEMENT IN LIFELONG LEARNING .....	72
<b>Y.K. Quliev</b>	
"PSYCHOLOGICAL CORRECTION MODEL OF COGNITIVE IMPAIRMENTS IN PATIENTS WITH CORONARY HEART DISEASE" .....	79
<b>Kudratova Aziza Ne'matovna</b>	
DEVIANT GURUHGA MANSUB YIGIT VA QIZLARNING SHAXSIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING "DEVIANT XULQ-ATVORGA MOYILLIK" VA "INTERNETGA QARAMLIK" BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	83
<b>Akbar Begaliyevich Chimanov, R.Abdurasulov</b>	



O'SMIRLIK DAVRIDAGI STRESSNING PSIXOLOGIK JIHATLARI .....	88
<b>Tulyaganova Gulnoza Olimjonovna</b>	
TALABALARDA XARAKTER AKSENTUATSIYASI VA GENDER XUSUSIYATLARINING O'ZGARISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	93
<b>Alanazarova Sholpan Artikbaevna, Janabaeva Raxima Orazali qizi</b>	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING MAMLAKATIMIZ HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	96
<b>Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich</b>	
SUITSIDAL XULQ-ATVORNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	101
<b>Tursunova Ozoda Abdullayevna</b>	
SHAXSNING KASBIY SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK YETUKLIK VA KASBIY KOMPETENSIYA .....	106
<b>Mirashirova Nargiza Anvarovna</b>	
KASBIY O'SISH (RIVOJLANISH) BOSQICHIDA TANLOV FANLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI .....	109
<b>Tuychiyeva Saodat Meliqo'ziyevna</b>	



# KASBIY O'SISH (RIVOJLANISH) BOSQICHIDA TANLOV FANLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Tuychiyeva Saodat Meliqo'ziyevna

Toshkent amaliy fanlar universiteti psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya:** Kasbiy o'sish (rivojlanish) bosqichida kasbiy kompetentlik va malakalar muhim ahamiyatga ega. Bugungi dinamik va tez o'zgaruvchan davrda bo'lajak mutaxassis o'zining kasbiy rivojlanishi haqida doimo qayg'urishi, o'z ustida muntazam ishlashi zarur. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonining dastlabki bosqichlaridanoq kasbiy-amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Hozirgi davrda bo'lajak mutaxassis uchun faqat diplom emas, balki u egallaydigan, amaliyotga yo'naltirilgan va aktual kasbiy-psixologik potensial muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada o'quv jarayonida tanlov fanlaridan samarali foydalanish orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning psixologik jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** professional, kasb, kompetensiya, dinamika, amaliy ko'nikma, bo'lajak mutaxassis, malaka, bilim, talaba, aktual, aktuallashtirish, potensial, kasbiy-pedagogik, o'quv jarayoni, tanlov fani.

**Abstract:** At the stage of professional growth and development, professional competence and skills play a crucial role. In today's dynamic and rapidly changing environment, a future specialist must be constantly engaged in his or her professional self-development. From this perspective, it is essential to focus on the formation of professional and practical skills starting from the educational process. In the modern context, a diploma alone is no longer the key indicator of professional readiness; rather, the actualized professional and psychological potential that a student acquires is of primary importance. This article examines the psychological aspects of developing professional competence in future specialists through the effective use of elective courses within the educational process.

**Key words:** professional, profession, competence, dynamics, practical skill, future specialist, qualification, knowledge, student, actualization, potential, professional-pedagogical, educational process, elective subject.

**Аннотация:** На этапе профессионального роста важную роль играют профессиональная компетентность и навыки. В современном динамичном и постоянно меняющемся мире будущий специалист должен постоянно заботиться о своём профессиональном развитии. С этой точки зрения, ещё в процессе обучения необходимо уделять особое внимание формированию практических профессиональных умений. В настоящее время для будущего специалиста важен не столько диплом, сколько приобретённый и актуализированный профессионально-психологический потенциал. В статье рассматриваются психологические аспекты развития профессиональной компетентности будущих специалистов посредством эффективного использования элективных дисциплин в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** профессионал, профессия, компетентность, динамика, практические навыки, будущий специалист, квалификация, знания, студент, актуализация, потенциал, профессионально-педагогический, образовательный процесс, элективная дисциплина.

## KIRISH

Qadimda greklar juda ajoyib iborani qo'llaganlar: "Talaba — to'ldirilib turilishi kerak bo'lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo'lgan mash'aldir." Bu fikrning tagida chuqur ma'no bor. Ta'lim jarayonining bugungi kundagi asosiy talablaridan biri — erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish bo'lib, bunda talabalarning bilishga qiziqishlari g'oyat katta rol o'ynaydi. Ma'lumki, qiziqish — bu o'quvchilarning emotsional bezagi, biror buyum yoki faoliyatni tanlashdagi munosabati va yo'nalishidir.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF–134-sonli Farmonining 7-bandi hamda 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-sonli Qarorning 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlarini "4+2" tartibida, ya'ni darslarning to'rt kuni oliy ta'lim muassasasida, ikki kuni esa maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borish vazifasi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, o'quv rejasiga kiritilgan ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish ham rejalashtirilgan. Ishlab chiqarish amaliyoti bo'lajak mutaxassisning kasbiy yetuklik darajasi va kasbiy-amaliy ko'nikmalarini namoyon etish uchun xizmat qiladi. Kasbiy amaliy kompetensiya dinamikasi esa shaxslararo munosabatlar va shaxsning kasbiy bahosini oshirishsiz tasavvur etish qiyin.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Professional, kasbiy o'sish (rivojlanish) bosqichida kasbiy kompetentlik va malakalar muhim ahamiyatga ega. Bugungi dinamik va o'zgaruvchan davrda bo'lajak mutaxassis doimo o'z kasbiy o'sishi haqida qayg'urishi kerak. Shu nuqtai nazardan, ta'lim olish jarayonining boshidanoq kasbiy-amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ustida bo'lajak mutaxassis muntazam ishlashi zarur.

Bugungi kunda bo'lajak mutaxassis uchun diplom emas, balki u egallaydigan, aktuallashtirilgan kasbiy-psixologik potensial muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy professionallik sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borgan E. F. Zeerning fikriga ko'ra, kasbiy ta'limning alohida tashkiliy shakllarini amalga oshirish lozim. Bu borada olim kasbiy potensialni oshiruvchi to'garaklar, ishchan o'yinlar, seminar-treninglar kabi faoliyat turlarini nazarda tutgan.

Rus tadqiqotchisi T. V. Kudryavsev esa kasbiy kompetensiyani rivojlantirish dinamikasini shaxsning o'quv-professional faoliyatga bo'lgan munosabatsiz tadqiq etish mumkin emasligini ta'kidlagan. Albatta, bunda motivning roli beqiyosdir. Motiv — bu inson xulq-atvorining ichki barqarorligini ta'minlovchi, uni harakatga undovchi psixologik tushunchadir.

Motivatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo'lib, unga tashabbus, yo'nalganlik, tashkilotchilik va qo'llab-quvvatlash kiradi. Ta'lim jarayonida o'qish motivlari "nima uchun?", "nimaga?", "qanday maqsad bilan?" kabi savollar asosida yuzaga keladi.

Motivlar, birinchidan, o'quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullarni tanlashga yordam beradi. O'quv faoliyatida o'quv motivlari o'quvchilar tomonidan tanlanib, ularning maqsadi, qiziqishi va kelajak rejalari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quv motivlari turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi.

O'quv faoliyati motivatsiyasining manbalari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Ichki manbalar. Ular insonning tug'ma yoki orttirilgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ulardan eng muhimi — tug'ma axborotga bo'lgan ehtiyojdir. Orttirilgan ehtiyojlar esa gnostik va ijtimoiy-ijobiy ehtiyojlar hisoblanadi.

3. Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy hayot shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Talabalarda bu manba, birinchidan, jamiyatning shaxsdan talab qiladigan doimiy xulq-atvorini bildiradi. Individdning dolzarb vazifalarni hal etishga bo'lgan motivatsiyasi va insonning voqelikni o'zgartirishga nisbatan munosabati hayot faoliyati sharoitlari va holatlariga adekvat bo'lgan vazifalarning echimini izlash, berilgan chegaralardan tashqariga chiqish hamda ijodiy faollik prinsipidan foydalangan holda tushuniladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimizning metodologik asosidan kelib chiqqan holda va tahlil etilgan adabiyotlar negizida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-amaliy kompetentligining dinamik rivojlanishini quyidagi darajalarda belgiladik:

1. Kasbiy bo'lmagan bosqich — past daraja;
2. Kasbiy marginal bosqich (lot. marginalis — oraliqdagi, aniq belgilanmagan) — o'rtadan past daraja;
3. Kasbiy tanishuv bosqichi — o'rta daraja;
4. Professionalgacha bo'lgan bosqich — o'rtadan yuqori daraja;
5. Kasbiy professional bosqich — yuqori daraja.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir bosqich o'ziga xos psixologik mexanizmlarga asoslanadi. Ilk bosqichda kasbiy ta'limda "javobli munosabat" mexanizmi ahamiyatga ega bo'lsa, tadqiqotimiz uchun muhim bosqich — "professionalgacha bo'lgan bosqich" (o'rtadan yuqori daraja)da kasbiy mas'uliyat, kasbiy mobillik va kasbiy-amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

Bu nuqtai nazardan, har bir bo'lajak mutaxassis o'zida mavjud shaxsiy-kasbiy xususiyatlarni baholagan holda, o'zining shaxsiy kasbiy rivojlanish darajasini aniqlashi kerak. Shunday qilib, kasbiy ta'lim jarayoni "inson-kasb" munosabatlarini bosqichma-bosqich real kasbiy faoliyatga olib keluvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi.



Kasbiy-amaliy kompetensiya dinamikasi bir tomondan shaxsning o'zini kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida anglashidagi o'zgarishlarga, ikkinchi tomondan esa shu o'zgarishlarning mezonlariga determinlanadi. Jamoaviy va individual kasbiy-o'quv amaliy jarayonni tashkil etish orqali bo'lajak mutaxassislarda kasbiy-amaliy kompetentlikning dinamik rivojlanishini ta'minlash mumkin.


Shundan kelib chiqqan holda, ushbu paragrafda bo'lajak mutaxassislarda kasbiy-amaliy kompetentlikni dinamik rivojlanishini ta'minlashning dasturiy asoslarini yaratishda o'quv jarayonining uchta asosiy shaklini ajratish mumkin:

1. Auditoriya mashg'ulotlari (tanlov fanlari). Bunda ta'lim jarayoniga "Pedagog-psixolog faoliyatida art-terapiya" hamda "Yoshlar o'rtasidagi liderlik" tanlov fanlarini o'quv rejasiga kiritish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish.

2. "4+2" o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti. Amaliyot dasturlarini ishlab chiqish va ushbu dasturlarga muvofiq ravishda talabalarning amaliy faoliyatini tashkil etish uchun uslubiy qo'llanmalar yaratish.

3. Auditoriyadan tashqari maxsus kasbiy rivojlantiruvchi treninglar. Bo'lajak pedagog-psixolog mutaxassislar uchun kasbiy-amaliy kompetentlikni dinamik rivojlantirishga qaratilgan maxsus trening dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Bo'lajak mutaxassislarda kasbiy-amaliy kompetentlikni dinamik rivojlanishini ta'minlashning dasturiy asoslari 1-rasmda aniq ko'rsatilgan.



**1-rasm. Bo'lajak mutaxassislarda kasbiy amaliy kompetentlikni dinamik rivojlanishini ta'minlashning dasturiy asoslari**

Talaba intellektual faoliyatining potensial "asosi"ni aniqlash va rivojlantirish jarayonida psixologiyada mavjud qator yo'nalishlar va oqimlarni yaqinlashtirishga qodir bo'lgan istiqbolli nazariy asos — bu sub'ektning metodologik prinsipidir. Ushbu prinsip shaxsga bilish, atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir va uni o'zgartirish sub'ekti sifatida qaraydi (B. G. Ananov, K. A. Abulxanova, A. V. Brushlinskiy, V. A. Petrovskiy, S. L. Rubinshteyn va boshqalar). Talaba inson sifatida faollik, butunlik va avtonomlikning yuqori darajasida turadi va aynan shu faoliyat turi uning muhim psixologik xarakteristikalarini belgilaydi.

Sub'ekt paradigmasi inson tomonidan o'zining insoniylik mohiyatini amalga oshirish jarayonini belgilaydi. Bu ta'rif sub'ektning sifatlarini u tomonidan dunyoda amalga oshirilgan o'zgarishlarning determinantlari (faollik), uning mustaqillikka, o'zini determinatsiya qilishga (o'z-o'zini boshqarish, tashkillashtirish) va o'z-o'zini takomillashtirishga bo'lgan qobiliyatlari sifatida ajratishni nazarda tutadi.

Ilmiy adabiyotlarda, tadqiqot yo'nalishiga bog'liq holda, quyidagilar farqlanadi: faoliyat sub'ekti, bilish sub'ekti, muloqot sub'ekti va hayot yo'li sub'ekti. Sub'ekt kategoriyasi shaxs rivojlanishining oliy darajasini bildiradi. B. G. Ananov va S. L. Rubinshteyn shaxs rivojlanishining bu darajasini individuallik tushunchasi bilan bog'lashgan. Ularning fikricha, shaxs o'z xususiyatining maksimal darajasiga yetishgach, individualga aylanadi; o'z insoniyligi va axloqiyiligining optimal darajasiga erishgach esa sub'ekt darajasiga ko'tariladi.

Ta'lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan. M. G. Davetshin bilan hammualliflikda yaratilgan "Yosh va pedagogik psixologiya" o'quv qo'llanmamizning "Ta'lim psixologiyasi" bobida P. Ya. Galperinning aqliy harakatlar, bilim, malaka va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish nazariyasiga murojaat etilgan.

P. Ya. Galperin nazariyasiga ko'ra, bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Motivatsiya;
2. Tushuntirish;
3. Moddiy shakldagi harakatlarni bajarish;
4. Baland ovozda harakatlar va vazifalarni bajarish;
5. Harakatlarni ichki rejada, ovoz chiqarmasdan bajarish;
6. Faoliyatni fikran bajarish.

Ushbu nazariyada ta'limning uchta asosiy tipi ajratiladi:

- Birinchi tipda — harakatlarni o'zlashtirish xatolar bilan kechadi; berilayotgan material etarli darajada anglanilmaydi, ta'lim oluvchi ta'limning asl mohiyatini tushunib yetmaydi.

- Ikkinchi tipda — material nisbatan to'liq tushuniladi, u bilan bog'liq tushunchalar aniq ajratiladi.

- Uchinchi tipda — tez, samarali va bexato harakatlarni o'zlashtirish ta'minlanadi [1, 106–110].

Tadqiqotimizda aynan ushbu nazariyaga asoslangan holda, ta'limning uchinchi tipida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-amaliy kompetentligini dinamik rivojlantirishga yo'naltirilgan shakllantiruvchi tajribalar olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan *“O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”*da kredit-modul tizimi asosida o'quv rejaga amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan fanlarni kiritish va amaliy mashg'ulotlar ulushini ko'paytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar etuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashni taqozo etmoqda. Ta'lim tizimida nazariya bilan amaliyotni, ta'limni hayot bilan uzviy bog'lash, fan dasturlarini takomillashtirish, ilm-fan yangiliklarini ta'lim jarayoniga joriy etish va sog'lom o'quv muhitini yaratish zarur. Zero, davlat ta'limi bilan bir qatorda xususiy ta'lim sektorining rivojlanishi ham yangiliklarni joriy etishni talab qilmoqda.

Kredit tizimida talabalarning qiziqishini oshirish, raqobatbardosh muhit yaratish, turli ta'lim usullarini qo'llash, o'quv-uslubiy ta'minot sifatini oshirish zarur. Xorij tajribasidan kelib chiqib, majburiy mutaxassislik fanlari bilan birga tanlov fanlarini o'quv rejasiga kiritishda maxsus komissiya tanlov fani bo'yicha ehtiyojni o'rganib, uni OTT Kengashiga tavsiya etadi.

Kredit ta'lim tizimida tanlov fani mutaxassislikning o'quv-uslubiy majmuasining majburiy elementi hisoblanadi. Tanlov fanlari mutaxassislik bo'yicha kiritiladi va kelajakdagi kasbiy faoliyat turlari hamda mutaxassisni har tomonlama etuk kadr sifatida shakllantirish uchun zarur bo'lgan fanlarni o'zida qamrab oladi. Tanlov fanlarida fan istiqboli, mutaxassis qobiliyati hamda ishlab chiqarish talablariga e'tibor qaratiladi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya sohalari jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda keng qamrovli, amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarga talab ortib bormoqda. Faqat fundamental nazariy bilimlarga tayanib, raqobatbardosh bo'lish qiyin. Ish bozorida amaliy ko'nikmalar, liderlik fazilatlarini, muloqotchanlik va kasbiy mobillikni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqib, 2022–2023-o'quv yilida Kengash qarori asosida 60110100 – Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalari uchun “Pedagog-psixolog faoliyatida art-terapiya” hamda “Yoshlar o'rtasidagi liderlik” tanlov fanlari kiritildi (fan dasturlari va sillabuslar ilovada keltirilgan).

Bugungi kunda psixologiya sohasi bilan bog'liq art-terapevt, art-konstruktor, kouch-art-terapevt, kouch-psixolog, psixolog-konfliktolog, psixolog-terapevt, psixodramatik, psixolog-konsultant, supervayzer, edvayzer kabi mutaxassisliklar shakllanmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti xabar berishicha, bugungi kunda dunyo aholining 40 foizi psixologik yordamga muhtoj. Shu bois, psixolog mutaxassisligiga ehtiyoj ortib bormoqda va bu kasb TOP-30 eng muhim kasblar qatoriga kiradi.

Kasblar bozorida ehtiyojlardan kelib chiqib, psixologiya fani doirasida tor soha mutaxassisliklarini shakllantirish zarur. Bunday yo'nalishlar oliy ta'lim tizimida hali keng o'qitilmaydi, biroq ular inson resurslarini ochish, muammolarni chuqur tahlil qilish va shaxsga har tomonlama professional yordam ko'rsatish imkonini beradi. Zamonaviy psixologiyada fundamental bilimlar bilan bir qatorda shaxs ruhiyatiga ta'sir etuvchi amaliy psixologik instrumentariylar, texnika va metodikalar paydo bo'lgan. Ular:

- shaxs krizislari va ruhiy travmalarni yengish;
- emotsional buzilishlar va ularning psixoterapiyasi;
- oila inqirozlari, ota-ona va bola munosabatlari muammolari;
- nizoli vaziyatlarda tezkor psixologik yordam ko'rsatish;
- ruhiy anglash va rivojlanish muammolariga yechim topish;
- shaxs va jamoa motivlarini anglash orqali dinamik rivojlanishga erishish kabi masalalarni hal etishda qo'llaniladi.

Bo'lajak pedagog-psixologlarga shunday zamonaviy amaliy ko'nikmalarni singdirish nazariy va amaliy bilimlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirildi. “Pedagog-psixolog faoliyatida art-terapiya” tanlov fani



talabalarga shaxsning emotsional va estetik rivojlanishini yosh xususiyatlariga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayonida tashkil etish ko'nikmalarini beradi. Ushbu fan talabalarda art-terapiya texnikalari bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Fanning vazifasi — talabalarni art-terapiya haqidagi nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, uslubiy yondashuvlar hamda estetik dunyoqarash bilan qurollantirishdir. Talabalar art-terapiya texnikalarini o'rganish orqali pedagog-psixolog kasbiy faoliyatida uni qo'llay olish malakasiga ega bo'ladi. Ular art-terapiya tarixi, unga muhtoj shaxs toifalari, individual va guruh terapevტი asoslari, zamonaviy psixologiyada art-terapevტიning o'rnini, turlari va psixoterapevტიk effektlari haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Art-terapiya texnikasi insonning ichki "Men"ining mazmuni chizgan rasm yoki haykaltaroshlik orqali vizual obrazlarda aks etadi, degan g'oyaga asoslanadi. Bu jarayonda psixikaning holati o'zgaradi. Ijod inson uchun o'z ichki dunyosiga kirish va o'zini anglash imkonini beradi. San'at insonni qalbining eng yorqin, samimiy jabhalariga yo'naltiradi. Inson yozayotganda, chizayotganda yoki biror buyum yasayotganda, u psixologik bo'shashish, o'zini tahlil qilish va ichki uyg'unlikka erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

"Yoshlar o'rtasidagi liderlik" tanlov modulini o'qitishdan maqsad — zamonaviy boshqaruv va liderlikning dolzarb masalalari, lider, rahbar, yetakchi, boshqaruv uslublari va ularning rivojlanish muammolari bilan tanishtirishdir. Shuningdek, kasbiy faoliyatdagi muammolarni ongli tadqiq etish, liderlik psixologiyasining imkoniyatlarini tushuntirish va ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan.

Modulning vazifasi — talabalarda liderlik mohiyati, lider va rahbar tushunchalari, zamonaviy boshqaruvda personal bilan ishlash bo'yicha bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi:

- psixolog-pedagog kasbiy faoliyati, boshqaruv psixologiyasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari;
- boshqaruv psixologiyasining zamonaviy fanlar tizimidagi o'rnini;
- liderlik va uning turlari;
- lider shaxsining hissiy-irodaviy sohasi va individual xususiyatlari;
- liderlik nazariyalari va shaxs haqidagi konsepsiyalarni tahlil qilish ko'nikmalari;
- psixologik tadqiqotlarni tashkil etish malakalari.

Liderlik — bu ta'sir qilish va nazorat o'rnatish usuli bo'lib, psixologiyada guruhdagi shaxslararo o'zaro ta'sir tizimida hukmronlik va bo'ysunish, ta'sir va ergashish jarayonlarini o'z ichiga oladi. T. V. Bendas talqiniga ko'ra, "liderlik" tushunchasi qadimiy tarixga ega bo'lib, uning kelib chiqishi insoniyatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Muallif fikricha, kamida ikki kishi uchrashgan joyda birining boshqasiga ustunlik qilish holati paydo bo'ladi. Binobarin, liderlik — insonga xos ijtimoiy-psixologik va umumiy tarixiy hodisadir.

Mazkur ikki fan bo'yicha shakllantiruvchi eksperiment guruhi Toshkent amaliy fanlar universitetida 2022–2023-o'quv yilining 4-semestrda o'tkazildi. Ta'lim yo'nalishi: 60110100 – Pedagogika va psixologiya. Darslar 4 kredit (120 soat) hajmida o'qitilib, ushbu fanlar negizida "Yoshlarda liderlik psixologiyasi" darsligi, 2 ta uslubiy qo'llanma, 15 ta nazariy mavzu bo'yicha ma'ruza matnlari, videodarslar yaratilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR


Bo'lajak mutaxassis pedagog-psixologlarda ushbu tanlov fanlari negizida quyidagi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga zamin yaratildi:

- talabalar shaxsiy sifatlarini ularning dunyoda amalga oshirgan o'zgarishlarining asosiy determinanti bo'lgan faollik darajasi oshdi;
- ularning mustaqillikka, ya'ni kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni nafaqat pedagoglar rahbarligida yoki dars jarayonida, balki mustaqil tarzda bilim izlash, topish va egallash malakalarini namoyon etish qobiliyatlari rivojlandi;
- o'zini determinatsiya qilish, o'z-o'zini boshqarish, o'quv faoliyatini tashkillashtirish va o'z-o'zini takomillashtirishga bo'lgan qobiliyatlar ancha rivojlangani kuzatildi.

Eng asosiysi, talabalar ushbu tanlov fanlari yordamida malakaviy amaliyot uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egalladilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Davletshin M.G., To'ychiyeva S.M. va boshqalar. Yosh va pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. 2007.-106-110 ; 111-117b.
2. Мартынова Е.В. О проблеме ценностно-смыслового отношения к профессии у студентов -психологов // Вестник Московского государственного областного университета. 2007. № 1. С. 28-38.
3. Служба психологического сопровождения студентов вузов: проблемы становления, основные направления, методы и принципы работы / Холмогорова А.Б., Якубова Л.Н., Горшкова Д.А., Евдокимова Я.Г., Москва М.В., Матыцына В.А. // Вопросы психологии. 2010. № 4. С. 55-63.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.